INNOVATION: THE JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND RESEARCHES
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL
ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 2, ISSUE 1, 2024

MARINA SVETAYEVA POETIK OLAMI

Maftuna Xalova
Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti
Fazoda Daminova
Samarqand davlat chet tillar instituti v.b.dotsenti

Annotatsiya. *Maqolada rus shoirasi Marina Svetayeva poetik mahorati haqida ma'lumot berilgan. Shoira ijodi davomida sevgi-muhabbat, vafo, sadoqat, ayriliq, hijron kabi mavzularda barakali ijod qilgan. Maqolada shoiraning "Мне нравится..." she'ri tahlilga tortiladi.*

Kalit so'zlar: *motiv, lirik kechinma, lirik qahramon, badiiy olam, poetik g'oya, uslub, ilhom, tahlil.*

https://doi.org/10.5281/zenodo.14060819

Аннотация. В статье представлены сведения о поэтическом творчестве русской поэтессы Марины Светаевой. За время своего творчества поэтесса благотворно творила на такие темы, как любовь, верность, верность, разлука, эмиграция. В статье анализируется стихотворение поэта «Мне нравится...».

Ключевые слова: мотив, лирический опыт, лирический герой, художественный мир, поэтическая идея, стиль, вдохновение, анализ.

Abstract. The article provides information about the poetic skills of the Russian poetess Marina Svetayeva. During her work, the poetess has blessedly created on topics such as love, loyalty, loyalty, separation, emigration. The article analyzes the poet's poem "Мне нравится...".

Key words: motive, lyrical experience, lyrical hero, artistic world, poetic idea, style, inspiration, analysis.

XX asrning 60-yillaridan so'ng yetishib chiqqan o'zbek shoir va shoiralariga poetik mahorat saboqlarini singdira olgan rus shoiralaridan yana biri Marina Svetayevadir. U uzoq yillar Parijda emigratsiyada yashaganligi, faqat 1941-yildagina Rossiyaga qaytgani bois uning ijodini o'rganishga kechroq kirishildi. Marina Svetayevaning 1984-yil Moskvadagi "Художественная литература" nashriyotida chop etilgan ikki tomlik she'rlariga so'zboshi yozgan adabiyotshunos Rojdestvenskiy shoiraning hayot va ijod yo'lini batafsil tahlil qilib o'tadi.

Marina Svetayeva o'zining poetik g'oyalarini diniy, falsafiy, real hayotiy qarashlarini sodda usulda ifodalaydi:

"Shayton haddan tashqari shayton,
Xudo haddan tashqari xudo" yoki
"Yashamoqlik ko'nikmoqlikdir,

ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 2, ISSUE 1, 2024

Ko‘nikmoqlik esa – jinoyat” singari murakkab bo‘lmagan misralar aksariyat umri davr fojialari aro kechgan shoiraning ruhiy olamini ko‘rsata oladigan misollardir.

Garchi Marina Svetayevaning bir qancha she’rlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan bo‘lsa-da, uning “Мне нравится...” deb boshlanuvchi she’rining original variantda ko‘rib o‘tishga harakat qilamiz:

She’rning asl matni She’r tarjimasi (Trajima muallifi X.Davron)

Мне нравится, что вы больны не мной,
Мне нравится, что я больна не вами,
Что никогда тяжелый шар земной
Не уплывет под нашими ногами.
Мне нравится, что можно быть смешной –
Распущенной – и не играть словами,
И не краснеть удушливой волной,
Слегка соприкоснувшись рукавами.

Мне нравится еще, что вы при мне
Спокойно обнимаете другую,
Не прочите мне в одовом огне
Гореть за то, что я не вас целую.
Что имя нежное мое, мой нежный, не
Упоминаете ни днем, ни ночью – всуе...
Что никогда в церковной тишине
Не пропоют над нами: аллилуйя! Qanday yaxshi, meni o‘ylab chekmassiz alam,
Qanday yaxshi, sizni deya chekmasman ozor
Va hech qachon bu muazzam kurrai olam
Uchib ketmas oyog‘imiz ostidan bezor.
Qanday yaxshi, qo‘rqmay yashash kulgu bo‘lmoqdan,
Beorlarcha oshkor qilmoq pinhona so‘zim.
Yenglarimiz bir-biriga tegib ketgan dam
Nafaslarim tiqilsa-da qizarmas yuzim.
Qanday yaxshi, menga aslo qilmasdan parvo,
Siz bemalol begonani turgaysiz quchib.
Menga Jahannam selini ko‘rmaysiz ravo
Sizni quchib bo‘sa olmay turganim uchun.
Siz, azizim, laziz ismim endi hech qachon
Na kun, na tun, hech qaerda aytmaysiz, tamom.
Va kaliso tinchin buzib endi bir zamon
Boshimizda yangramagay ilohiy kalom.

Darhaqiqat, bu she’r Marina Svetayevaning eng mashhur she’rlaridan, romans bo‘lib kuylangan misralaridir. 1915-yilda yozilgan she’r, lekin tuyg‘ular doimo eskirmaydi

ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 2, ISSUE 1, 2024

deganlaridek, qalbga yaqin hislar mujassam. Bu she'rning, tuyg'ularning o'z tarixi mujassam. Mazkur misralarda javobsiz sevgi, hissiyot, ayol qalbining tug'yonli suroni mavjud. Lirik qahramonning muhabbati qanchalik kuchli bo'lmasin, ayollarga xos noziklik, oshkora hislarini bayon qila olmaslik jihatlarini ham ko'rsatib bera olgan. Lirik qahramon tuyg'ulari rivojlanib, shakllanib, she'r yakunida, hattoki, muhabbatining javobsiz qolganidan afsuslanish, o'z-o'ziga achinish mujassam. Shu bois ham mazkur she'r o'zbek tarjimonlari nigohini o'ziga qarata olgan. Natijada, Xurshid Davron, Nodira Afoqova, Gulnoz Mo'minova, Gulbahor Said G'ani, Oygul Suyundiqovalar tomonidan tarjima qilinadi. Bizningcha, eng yaxshi tarjima Xurshid Davronnikidir. Chunki unda ayol qalbi, uning latofati aniq saqlanib qolgan. Tarjimadagi so'zlar ham asl mohiyatni bera olgan. Gulnoz Mo'minova, Gulbahor Said qizi hamda Oygul Suyundiqovalarning tarjima ishlariga nazar tashlansa, so'zma-so'z tarjimaga ko'proq ahamiyat qaratganligi oydinlashadi. Shu bois ham mazkur ishimizda Xurshid Davron tarjimasidan foydalandik.

Спасибо вам и сердцем и рукой
За то, что вы меня – не зная сами! –
Так любите: за мой ночной покой,
За редкость, встреч закатными часами,
За наши не – гулянья под луной,
За солнце, не у нас над головами, -
За то, что вы больны – увы! – не мной,
За то, что я больна – увы! – не вами! Minnatdorman, ammo, dilim, qo'lim haqi, Siz
O'zingiz ham sababini bilmasdan nechun
Meni sevib, tunlar orom baxsh etganingiz,
Shomlar tuhfa qilgan qisqa visollar uchun.
Oy ostida yuz bermagan sayrlar haqi,
Boshimizdan shams sochmagan nuqra-zar haqi,
Men roziman, garchi, afsus, siz o'zgaga yor,
Siz deb, afsus, endi qalbim chekmagay ozor.

Mazkur misralarda mehr-muhabbatga to'la ayol qalbining inja kechinmalari o'ta san'atkorona va mahorat bilan hayotiy chizilganki, bunda shoira poetik uslubining bir qator muhim qirralari o'zligidan darak berib turibdi. M.Svetayeva lirikasiga xos munosabat, ruhiy kechinmani atrofdagi narsa-predmetlar bilan muqoyasa qilgan holda detallashtirib tasvirlash, mavhum va abstrakt tushunchalarni aniq ham konkret ifoda etish, ifoda manerasining soddaligi, intim lirikaning ruhiy drama asosiga qurilishi kabi qator xos alomatlar o'zbek shoiralariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdiki, Halima Xudoyberdiyeva, Farog'at Kamolova, Zebo Mirzolar ijodida buning ilhombaxsh izlarini ko'rish mumkin.

Erkaklar adabiyoti va ayollar adabiyoti deganimiz garchi bir shartli tushunchalardek tuyulsa-da, biroq ularning o'ziga xos bir qator jihatlari mavjud. Bu, eng avvalo, mavzuga bo'lgan munosabatda, uning qay jihatlariga e'tibor berilishida, umuman olganda, erkaklar yo ayollarga xos talqin etishda – chunki olamni qabul qilish, obyektiv voqelikka aralashish, unga

ISSN: 2181-3868 SJIF-2023: 3.812 | ISI: 0.539 | VOLUME 2, ISSUE 1, 2024

hissiyot bilan yo aqlan yondashish masalasi ikkala jinsda, albatta, bir xil emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Павловский А.И. Анна Ахматова. Жизнь и творчест. – Москва, 1991. Изд.Просвешение. – С.34.
2. Чуковская Л. Записки об Анне Ахматовой. – Нева, 1989.-№6. – С.38.
3. Цветаева М. Сочинения. Том первый. – Москва: Художественная литература, 1984. – С.44.